

2023-yil yanvar oyida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 5 mlrd. dollarni tashkil etgan. Shundan:

Eksport:
2,1 mlrd. dollar

Import:
2,9 mlrd. dollar

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#10 (16559)
2023-yil, 22-fevral
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqqan boshlagan

Dolzarb mavzu
2-bet

Arshni kim larzaga
solmoqda?

Yoshlar siyosati
3-bet

Yoshlar masalasiga
yangicha yondashuv

Birga o'qiydiz!
7-bet

"Hayajonsiz o'qib
bo'lmaydi"



Foto: Xolida MUSULMON

OTANGGA BALLI, YETAKCHI!

Shayxontohur tumanidagi "Sarhumdon" mahallasi yoshlar yetakchisi Davronbek Meliqo'ziyev milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan eng ilg'or 100 nafar yoshlar yetakchisidan biri. Uning 10 ga yaqin loyiha va tashabbuslari 2023-yilga mo'ljallangan "Yoshlar dasturi" dan joy olgan.

batafsil
4-betda

ARSHNI KIM LARZAGA SOLMOQDA?

O'zbek jamiyati haqida gap ketganda, g'arb bizning oilaviy ana'nalarimizga, qadriyat, avloddan avlodga o'tib kelayotgan rishtalarni mustahkamlovchi tushunchalarimizga havas bilan qaraydi, deb mag'rurlanishga o'rganib qolganmiz. Biroq an'ana, qadriyat, keksalar-u mahalla bo'lsa ham, ajrimlar borasida ortda qolayotganimiz yo'q.

Statistika ma'lumotlariga qaraganda, 2022-yilda nikoh qurish holatlari o'tgan yillarga nisbatan kamaygan bo'lsa, ajrimlar soni ko'paygan. 2022-yilda O'zbekistonda 296,7 mingta nikoh qayd etilgan. Ko'rsatkich so'nggi 5 yilda sezilarli kamaygan:

2018-yilda
311,4
mingta;
2019-yilda
310,9
mingta;
2020-yilda
296,8
mingta;
2021-yilda
305,2
mingta.

Ajrimlar soni joriy yilda 48,7 mingtaga yetib, so'nggi 5 yilda sezilarli ko'paygan:
2018-yilda
32,3 mingta;
2019-yilda
31,4 mingta;
2020-yilda
28,2 mingta;
2021-yilda
39,3 mingta.

2022-yilda ajrimlarning 50,5 foizi yosh oilalar hissasiga to'g'ri kelgan. Yosh oilalarning ajralib ketishiga 41 foiz holatda xarakterlar mos kelmasligi, 13 foiz holatda befarzandlik, 15 foizida moddiy qiyinchiliklar, 34 foizida uchinchi shaxs aralashuvi, 25 foizida zararli odatlar sabab bo'lgan.

“QAYNONAM BILAN CHIQISHA OLMADIM”

“Qaynonam bilan chiqisha olmaganim sababli turmushim buzilgan. Aslida, erim yaxshi inson edi, ammo hech qachon yonimni olmas, uyda janjal bo'lsa, doim meni ayblardi. Qaynonam boshqa qizni kelin qilmoqchi bo'lgan, turmush o'rtog'im esa meni tanlagan. Shu sababdan qaynonam meni yoqtirmas, qilgan ishlarimdan kamchilik topar edi. Oxiri ota uyimga ketdim. “Men kerak bo'lmasam ham, erim bolasi uchun bizni olib ketib, alohida uyda yashaydi”, deb o'ylagandim. Afssuski, xato qilibman. Birorta jiddiy muammo bo'lmasa ham, biz ajrashdik. Erim o'sha onasi aytgan qizga uylandi. Atigi 1,5 yil yashadik, bir o'g'lim bor”, – **deydi xorazmlik Shalola Karimova.**

Shahruza SATTOROVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri



“MAOSHIM KAM EDI...”

“Namangan davlat universitetining tarix fakultetini tamomlaganman. Qishlog'imda yaxshi ish topa olmaganim uchun uylangach, oilam bilan shaharga ko'chib keldik. Otam dehqon, onam hech qayerda ishlamaydi. Mendan boshqa ikkita ukam ham bor, shu sababdan ulardan yordam so'ray olmasdim. Shaharga kelgach, ishga kirdim, ikki yarim million so'm maosh olardim. Bu pul ijara haqi, yo'l kiradan ortib, yeb-ichishimizga arang yetardi. Xotinin o'ziga to'q oilada o'sgan. Yegisi, kiygisi kelgan narsani olib bera olmadim. Shu sabab “bu ketishda qachon yaxshi kun ko'ramiz?” deb ko'p janjallashib qolardik. Ijarama-ijara yurish, moddiy qiyinchiliklardan oilamga dars ketdi, uch yil yashab, ajrashdik”, – **deydi ismi sir tutilishini xohlagan qahramonimiz.**

Ijtimoiy tarmoqda “Oilaviy ajrashishlarga asosiy sabab nima deb o'ylaysiz?” savoli bilan o'tkazilgan kichik so'rovnoma aksariyat foydalanuvchilar urf-odatlar, qaynonaning kelinga soliq solishi, kuyovning kelin tomondan mulk ta'ma qilishi, kelinlarning ota uyiga “gap tashishi”, telefon va ijtimoiy tarmoqlar, yoshlarning na fikrlash, na pul topishda mustaqil emasligi, yigitlarning o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishi, qizlarning “xo'p”dan yiroqligi, o'zaro hurmat tushunchasining yo'qolishi, besabirlik, aybni tan olmaslik kabilarni sanagan.

Tahlillar ko'rsatadiki, ajrim yoqasiga kelib qolgan, ajrashgan oilalarning muammolari bir-biriga o'xshamaydi. Ammo ajrimlarning katta qismi jiddiy sabablarsiz kelib chiqmoqda.

MAS'ULIYAT FAQAT AYOLDA EMAS

Biz negadir qizlarimizni yoshligidanoq kelinlikka tayyorlaymiz. Tengi chiqsa tekin ber, deb duch kelganga qizimizni qo'sh qo'llab topshiramiz. Keyin esa xarakteri to'g'ri kelmadi, kuyov ichar ekan, qaynona zolim ekan, deya ajratib olib, bolalarni yetim qilamiz. O'rtada otasi aliment ham to'lay olmaydigan farzandlarga qiyin bo'ladi.

Nega er farzandlarimizni qizlarni turmushga tayyorlagandek tayyorlamaymiz? Kelin ham bironing guldek farzandi, uni himoya qilish, boqish, yedirish-ichirish, uy-joy bilan ta'minlash erkakning vazifasi ekanini yoshligidan miyasiga quymaymiz? Nega uni haqiqiy erkak qilib tarbiyalamaymiz? Agar biz millat erkaklarini shunday tarbiya qilolganimizda edi, ojizga qo'l ko'targanlar, katta raqamlardagi ajrimlar bo'lmasdi.

– Turmush bir tekis kechmaydi. Hamma oilada ham qiyinchilik, o'ziga yarasha tashvishlar, baland-past gaplar bo'ladi. Ana shunday paytda erkag-u ayolning donoligi, olgan tarbiyasi qo'l keladi. Bunda erkak tarozining ikki pallasini teng tuta olishi kerak bo'ladi. To'g'ri, ajrimlar sonini “o'ga tushirib bo'lmaydi. Ammo ularni kamaytirishga erishish mumkin, albatta. Farzandlarimizni mol-dunyoga emas, ilmga muhabbatli qilish, sep-sidirg'alar qatoriga bir dasta kitobni ham qo'shish, qiz-u o'g'ilga o'z vazifalarini to'g'ri tushuntira olish, uyimizga kelgan kelinga o'gay ko'z bilan qaramasdan, yaxshi muomala qilish, bu dunyoda insondan faqat ezgulik qolishini farzandlar ongiga chuqur singdirish orqali buzilayotgan oilalar sonini kamaytirish mumkin, – **deydi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining oilaviy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash boshqarmasi boshlig'i Zarifa Iskandarova.**

Ro'yi zaminda bir nikoh buzilganda Arshi a'lo larzaga keladi. Sudga ajrim uchun ariza topshirayotgan er-xotin tanlagan qarori ham o'ziga, ham jamiyatga, ayniqsa, uning safiga endi qo'shilgan kichik yoshdagi farzandining taqdiriga salbiy ta'sir qilishini anglaydi. Ammo anglash boshqa, natija boshqacha tus olmoqda. Oilaviy ajrimlar masalasida yozilmagan gap, uni bosib chiqarmagan gazeta, mavzu yangramagan ko'rsatuv qolmadi hisob. Mutasaddildan so'rasangiz, “loyihalar amalga oshirilyapti, yarashtirish komissiyalari ishlayapti”dan nariga o'tishmaydi. Murg'ak qalblarning tirik yetim bo'lishi esa zamonaviy jamiyatda odatiy holga aylanib bormoqda...

2022-YILDA AJRIMLARNING 50,5 FOIZI YOSH OILALAR HISSASIGA TO'G'RI KELGAN.

Tashabbus

YETAKCHILARGA SKUTER TOPSHIRILDI

XORAZM TAJRIBASI



Xorazm viloyatida 531 ta mahallada yoshlar yetakchisi faoliyat olib bormoqda. Yetakchilar qulay sharoitga ega xizmat xonalari, zarur ko'rgazmali vositalar, qiymati 2 milliard so'mdan ortiq ofis jihozlari, kompyuter hamda planshetlar bilan ta'minlandi.

Yoshlar yetakchilari faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va ularga qulay sharoitlar yaratish maqsadida Xorazm viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi Jo'rabek Ra-

himov tashabbusi bilan **Xorazm viloyati tajribasi** sifatida hududi katta bo'lgan **12 nafar** yoshlar yetakchisiga “Elektron skuter” berildi.

Shuningdek, barcha yetakchilar **namunaviy tipdagi ish formasi** va **xizmat sumkasi** bilan ta'minlandi.

Doniyor YUSUPOV,

Yoshlar ishlari agentligining Xorazm viloyati boshqarmasi axborot va media bo'yicha mutaxassisi

YOSHLAR

MASALASIGA YANGICHA YONDASHUV

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati manzili va keng qamrovli. Xususan, o'tgan yili 9 ming 406 ta mahallada yoshlar yetakchilari faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning muammolarini joyida hal etish imkoniyati yaratildi. Natijada yoshlar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati 30 kundan 5 kunga qisqardi. Ayni paytda yetakchilarning tavsiyasi asosida yigit-qizlarga 25 turda yordam ko'rsatilmoqda.



Adham IKROMOV,
Yoshlar siyosati va sport vaziri:

Yosh avlodning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish va bandligini ta'minlash maqsadida 14-30 yoshdagi 9 million nafar yoshning balansi shakllantirildi. Bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida besh bosqichli "Besh tashabbus olimpiadasi" o'tkazib kelinmoqda.

O'tgan haftada Prezidentimiz raisligida yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda bu boradagi ishlarni davom ettirib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish zarurligi ta'kidlandi.

O'tgan yili Prezidentimiz tashabbuslari bilan "Besh tashabbus olimpiadasi"ni ikki maratona o'tkazib, musobaqalarga 8 milliondan ortiq yoshlarni jalb qildik. 6 million 200 nafar yosh sport olimpiadalarining o'zida

shug'ullandi va bu orqali juda katta motivatsion mexanizm paydo bo'ldi. Yig'ilishda esa davlatimiz rahbarining "Besh tashabbus olimpiadasi" negizidagi kitobxonlik, "Zakovat" intellektual o'yinlarini yanada qiziqarli o'tkazish, qaysi idoralar bilan ishlash kabi topshiriqlarini oldik. Shuningdek, davlatimiz rahbari tizimli ishlashdagi juda ko'p asosli tanqidlarni ham aytib o'tdilar.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari bitiruvchilarni kasb-hunarga o'rgatish va ish bilan ta'minlashga qaratilgan "Hayot maktabi" dasturini amalga oshirish tashabbusini bildirdi. Yoshlarni e'tibor va g'amxo'rlik bilan to'la qamrab olish maqsadida ular "mahalladan vazirlikkacha" tizimi orqali davlat idoralariga birlashtirilishi belgilandi.

Yoshlarga ajratilayotgan mablag'larning shakllanishi va moliyalashtirish jarayonlarini raqamlashtirib, maqsadli yo'naltirish vazifasi qo'yildi. Yigit-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, biznes ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Yoshlarimiz san'at, adabiyot, sport sohaslarida ham intiluvchan. Yig'ilishda ularga bunday imkoniyatlarni yaqinlashtirish maqsadida "Madaniyat karvoni" tadbirlari, festivallar, intellektual va sport musobaqalari o'tkazilishi, yoshlar sayilgohlari, kreativ parklar tashkil etilishi aytib o'tildi. Shuningdek, yig'ilishda yoshlarni yot g'oyalar xurujidan ishonchli himoya qilish uchun muqobil axborot resurslari yaratib, boyitib borish zarurligi qayd etildi.

Yig'ilishda mutasaddilar joriy yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan axborot berdi.

Yosh kitobxon

KITOBXONLAR BAHSI BOSHLANDI



Prezidentimizning besh muhim tashabbusi doirasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida 2017-yildan buyon an'anaviy tarzda "Yosh kitobxon" tanlovi o'tkazib kelinmoqda. Shu kunga qadar tanlovga 3,6 milliondan ziyod yoshlar qamrab olinib, 14 nafar g'olib Prezident sovg'asi - "Spark" avtomashinasi bilan taqdirlandi.

2022-yil 3 ta yosh toifasida (10-14 yosh, 15-19 yosh, 20-30 yosh) 5 bosqichda tashkil etilayotgan tanlovda 640 mingga yaqin yoshlar ishtirok etish uchun ariza topshirgan. Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida boshlangan tanlovning final bosqichida hududlardan saralangan g'oliblar (jami 42 nafar) 5 ta - "Badiiy asarlar bilimdoni", "Tezkor savol-javob", "Buyuk mutafakkir va adib", "She'riyat", "Insho yozish" shartlari asosida o'zaro bellashmoqda.

Respublika bosqichi ishtirokchilari 3 ta yosh toifasida 1-o'rin Prezident sovg'asi - "Spark" avtomobili va diplom; 2-o'rin 50 million so'm pul mukofoti va diplom; 3-o'rin 30 million so'm pul mukofoti va diplom bilan rag'batlantiriladi.

Qolgan barcha ishtirokchilar 10 million so'mdan pul mukofoti va sertifikat bilan taqdirlanadi.



Alisher SA'DULLAYEV,
Yoshlar siyosati va sport vazirining birinchi o'rinbosari,
Yoshlar ishlari agentligi direktori:

Prezidentimiz yoshlar siyosatini 2023-yilda yanada samarali tashkil etish bo'yicha yoshlar siyosatiga mas'ul vazirlik va idoralarga iqtidorli, salohiyatli, bilimli yoshlarning, har bir talabaning qiziqishlarini o'rganish, ularga imkoniyatlarni yanada ko'paytirib berish bo'yicha topshiriq berdi. Sababi, ular bilan ishlaydigan, bilim, fikr-mulohazalarni eshitadigan yangicha tizim, yangicha yondashuv kerak. Shu nuqtayi nazardan davlatimiz rahbari oliy ta'lim sohasidagi yoshlar bilan ko'proq ishlash, shuningdek, mahallalardagi "Yoshlar balansi" orqali har bir yoshning istagi, xohishi va tashvishlarini aks ettiradigan tizim yaratishni aytib o'tdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 560 milliard so'mni yoshlar muammolarini yechish uchun

subsidya sifatida berdik. Shu orqali kasb-hunar va chet tillarini o'rganaman degan yoki ijtimoiy ko'mak so'ragan yoshlarga yordam berish tizimi yaratildi. 1093 raqami orqali xohlagan yosh, xohlagan vaqtda "online" murojaat qoldirishi mumkin bo'ldi. Bu orqali 292 ming yoshlarga yordam berildi. Prezidentimiz bu tizim yanada rivojlanishi, ko'proq yoshlarni qamrab olishi va eng muhimi, har bir yosh mamlakatdagi islohotlarda o'z taqdirini his etishi kerakligini belgilab berdilar.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

OTANGGA BALLI, YETAKCHI!

Shayxontohur tumanidagi
"Sarhumdon" mahallasi
yoshlar yetakchisi
**Davronbek
Meliqo'ziyev:**

- Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan;
- Eng ilg'or 100 nafar yoshlar yetakchilaridan biri;
- Prezident huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasining "Kelajak liderlari" o'quv kursini tamomlagan;
- Faol yetakchi sifatida Toshkent shahar hokimligi tomonidan taqdirlangan.

Toshkentning eski shahar qismida joylashgan "Sarhumdon" mahallasidagi 1378 ta xonadonda 7 mingga yaqin fuqaro yashaydi.

Shundan **1514** nafari
14-30 yoshlilar.



Yoshlar yetakchisi faoliyatini Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham e'tirof etgan. Aniqrog'i, 2022-yil 29-30-sentabr kunlari BMT "Taraqqiyot dasturi"ning maxsus vakillari "Sarhumdon" mahallasida bo'lib, mahalla yoshlarini kasb-hunarga o'qitish, ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlash, iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan ishlar bilan tanishdi.



Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Mahalla yoshlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 457 million so'm yo'naltirildi. Ular quyidagicha sarflandi:

155 million so'm "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olingan yoshlarga ko'mak berish orqali;

270 million so'm hokim yordamchisi bilan hamkorlikda imtiyozli kredit ajratilish orqali;

32 million so'm turli xildagi to'garaklarga bepul yo'llanmalar taqdim etish orqali.

2022-yilda mahalla yoshlaridan
297
ta murojaat kelib tushgan;

35
tasi
"Yoshlar daftari" orqali;

198
tasi
og'zaki;

64
tasi
ijtimoiy tarmoqlar orqali.

Murojaatlar quyidagicha hal etilgan:

35
nafari "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olinib, muammosi hal etildi;

126
nafari bepul to'garaklarga jalb etildi;

41
nafari ijtimoiy-huquqiy yordam oldi;

33
nafari kasb-hunarga o'qitildi;

62
nafari ish bilan ta'minlandi.



“
DAVRONBEK MELIQO'ZIEVNING 10 GA YAQIN LOYIHA VA TASHABBUSLARI 2023-YILGA MO'LJALLANGAN "YOSHLAR DASTURI" DAN JOY OLGAN.
”

Davronbek MELIQO'ZIEV,
"Sarhumdon" mahallasi yoshlar yetakchisi:

– Probatsiya ro'yxatida turuvchi, jinoyatchilikka moyilligi bor, notinch oila farzandlari hamda bemaqsad yurgan ishsiz yoshlar bilan yaqindan tanishib, ular bilan do'stona munosabatda bo'lishga harakat qildim. "Besh tashabbus olimpiadas" doirasidagi barcha musobaqalarga hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga shu toifadagi yoshlarni ko'proq qamrab oldik. Mahalla sardorlarining ayrimlari shu yoshlardan saylandi. O'tgan yillar davomida mahalla yoshlari o'rtasida ko'plab jinoyatlar sodir etilgani sabab "qizil" hudud toifasiga kirar edik.

Profilaktika inspektori Erkin Sotimov bilan hamkorlikda ishlarini tizimli tashkil etish natijasida 2022-yilda mahallamiz yoshlari orasida birorta jinoyat sodir etilmadi. Bu esa mahallamizni "yashil" hududdagi mahallalar safiga olib chiqdi.

Mahallamiz atrofidagi 41, 82, 102-maktablar bilan hamkorlikda yoshlarning qiziqishlariga qarab fan, sport, san'atga oid to'garaklar tashkil etdik. Yoshlar ishtirokida 71 ta ko'rik-tanlov va loyihalar, 98 ta sport musobaqasi o'tkazib, 4 mingdan ortiq yoshlarni qamrab oldik. Hamkorlik natijasida to'garaklar soni 48 taga ko'payib, yoshlar qamrovi 40 foizdan 60 foizga oshdi. Bu yil 90 foiz maktab o'quvchilarini to'garaklarga qamrab olmoqchimiz. Bu borada "Obinazir", "Bog'ko'cha", "Gulobod", "Chorusu", "Suzukota" mahallalaridagi yoshlar yetakchilari bilan tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

E'tirofga sazovor tashabbuslari:


- Sardorlar faoliyati yo'lga qo'yilib, yangi lider yoshlar kashf etildi;
- mahalla binosida yoshlar uchun kutubxona tashkil qilindi;
- 200 nafarga yaqin yoshlar uchun bepul ingliz tili to'garaklari ochildi;
- faol yoshlarni rag'batlantirish uchun Samarqand shahriga sayohat uyushtirildi.

Mahalla hududida yoshlar ishtirokida sodir etilgan jinoyatlar tahlili:

2020-yilda – **4** ta;

2021-yilda – **3** ta;

2022-yilda – **0** ta.






10-IMTIYOZ:

OLIMPIADA, TANLOV VA MUSOBAQA QATNASHCHILARIGA IMTIYOZ

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-sonli qarori bilan mahalladagi yoshlar yetakchisi tavsiyasi asosida "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olingan yoshlar bilim olishi, kasb-hunar o'rganishi, davolanishi, doimiy ish bilan ta'minlanishi, subsidiya asosida asbob-uskunalar olishi, moddiy ahvolini tiklashi, tadbirkorligini boshlash va rivojlantirishi uchun 25 ta yo'nalishda yordam olishi mumkin.

YOSHLARNING ILM-FAN, SPORT, SAN'AT VA MADANIYAT YO'NALISHLARIDAGI OLIMPIADA, TANLOV VA MUSOBAQALARDA QATNASHISH XARAJATLARI UCHUN SUBSIDIYA AJRATILADI.



KIMLARGA BERILADI?

- oila a'zosi "Temir daftar", "Ayollar daftari" yoki "Ijtimoiy himoya yagona reestri" ATga kiritilgan yoshlarga;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga;
- boquvchisini yo'qotgan, yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarga;
- I yoki II guruh nogironi bo'lgan yoshlarga;
- "Mehribonlik" uyi, Bolalar shaharchasi yoki oilaviy bolalar uyida tarbiyalangan yoshlarga;
- ishsiz yoshlarga;
- jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan yoshlarga.

QANCHA MIQDORDA?

Mahalliy bosqichlar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari, xalqaro bosqichlar uchun 40 baravari.

Shohinur DAVLATJONOV,

Yoshlar ishlari agentligining Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish boshqarmasi bosh mutaxassisi

TABIATSEVAR KO'NGILLILAR

Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi, "Ekolog" jamoat birlashmasi, "USAID" hamda "Eurasian Foundation" xalqaro tashkiloti hamkorligida volontyorlar maktabi mentorlari va ekovolontyorlar uchun o'quv-seminar o'tkazildi.

Treningda "virtual suv", "suv izi", "suv sarfi" kabi muhim ma'lumotlar orqali volontyorlarning suvni tejash bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirildi.

– Volontyorlikning yangi yo'nalishida o'zini sinab ko'rish uchun ro'yxatdan o'tdim va yosh ekovolontyor forumi ishtirokchilari safiga qabul qilindim, – **deydi ekovolontyor Begzod Yoqubov.** – Treninglarda ekologiya "Ona tabiatni asraylik", degan umumiy gaplardan iborat emasligiga amin bo'ldim. "Suv izi" haqidagi ma'lumotlarni eshitib, ochig'i, hayratlandim. Biz, ekovolontyorlar ekologik madaniyatni xalqqa yetkazishga hissa qo'shamiz!

Komila HAMROYEVA,
ekovolontyor



"Yoshlar daftari" dan

4 TA ISH O'RNI YARATGAN



Murojaat maqsadi:

Plastik eshik va romlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilishga subsidiya ajratishni so'ragan.

Yoshlar yetakchisi Boburmirzo Abdullaev Husanjonning xonadoniga borib, oilaviy holatini o'rgangan va "Yoshlar daftari"ga tavsiya qilgan.

Natija:

• plastik mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashgan katta o'lchamdagi asbob-uskunalar uchun "Yoshlar daftari" jamg'armasidan 12 million so'm imtiyozli kredit olgan;

- o'zini rasmiy band qilgan;
- plastikdan turli eshik va romlar tayyorlaydi;
- 4 ta ish o'rne yaratgan;
- o'rtacha oylik daromadi 4-5 million so'm;
- 10 nafar shogirdi bor;
- "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga uskuna dastgohida ishlash va eshik-romlar yasash sirlarini o'rgatmoqda;
- ehtiyojmand va kam ta'minlangan oilalarga eshik va romlar narxidan chegirma qilib bermoqda.

Zarnigor UBAYDULLAYEVA,

Yoshlar ishlari agentligining Farg'ona viloyati boshqarmasi axborot va media bo'yicha mutaxassisi

Oilaviy holati:

- bolaligida ota-onasi ajrashgan;
- otasi tashlab ketgan, onasi 2020-yilda vafot etgan;
- xolasining uyida akasi bilan vaqtincha istiqomat qiladi;
- doimiy yashash joyi yo'q;
- uylanmagan;
- ma'lumoti o'rta-maxsus;
- daromad manbayiga ega emas;
- norasmiy band;
- oilada yagona boquvchi;
- usta-hunarmand Iskandar Ismoilovdan plastik eshik va rom yasash sirlarini o'rgangan.



MILLATNING TIRILISH YO‘LI

1999-yilda BMTning Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti – YUNESKO 21-fevralni – Xalqaro ona tili kuni deb e‘lon qilgan. Bu sana butun dunyoda nishonlanib kelinadi. YUNESKO o‘zgalarga nisbatan bag‘rikenglik va hurmatni rag‘batlantirishga hissa qo‘shuvchi madaniy va lingvistik farqlarni saqlab qolish bo‘yicha davomli faoliyat olib bormoqda.

shunday fikrlarni yozgan: “Bu qurultoy ko‘lagasida uzoq zamonlardan beri yo‘lg‘a solinmasdan yo‘lsiz yozilib kelgan imlolarimizga va bir necha yuz yildan beri o‘z borlig‘ini yo‘qotmasdan saqlab kelgan sanoyi nafisalarimizga qaytadan jon kirguzildi va bularning qattiq o‘rmashib qolmoqlari uchun yangidan negiz solindi. Bu kun o‘zbek eli chindan o‘zin qutqardi va o‘zining erkli yashamog‘iga keng bir yo‘l ochdi. Bir ulusning dunyoda borliqqa chiqaraturg‘on narsasi, shubhasiz, uning milliy narsalari va tili bo‘lg‘usidir, milliy narsasi yo‘q bir el totli bir turmush bilan yashay olmag‘onlig‘i kabi tili yo‘qotqon bir el-da o‘zin yo‘qotqan bo‘lur. Buni tushungan bir el, albatta, milliy narsalarin qo‘ldan bermay saqlag‘on kabi o‘z tilinda unutmaliqqa tirishar, mana bu yo‘l millatning tirilishi uchun katta, keng yo‘ldir”.

Millat ravnaqi yo‘lidagi bunday sa‘y-harakatlari uchun jadid bobolarimiz maqto‘v va mukofotga emas, ta‘na-yu dashnomlarga, “millatchi” degan tamg‘aga loyiq ko‘rildi.

Til bilgan el biladi. Ammo **bolalarning tili o‘z ona tilida emas, o‘zga tillarda chiqayotgani, eng ayanchlisi, ular ona tilini bilmasligi – fojia.** Ota-onalar ham xorijiy tillarni o‘rganayotgan bolalarini rag‘batlantirib, ular bilan faqat o‘sha tillarda gaplashayotgani oqibatida kelajakda o‘zbek tilining unitilib ketish ehtimoli mavjud. Shunday ekan, bolalarga xorijiy tillarni o‘qitish bilan bir vaqtda o‘z ona tilini ham mukammal o‘rgatish davr talabidir.

Shuningdek, sof o‘zbek tilida gapira olmasdan o‘zga tillardagi so‘zlarni qo‘shib gapiruvchilar ham ko‘p. Bu borada buyuk alloma, din va davlat arbobi, mohir tarjimon, “Tarixi Muhammadiy”, “Turkiston qayg‘usi”, “Devoni Sog‘uniy”, “Shifo ul-ilal” kabi asarlar muallifi **Alixonto‘ra Sog‘uniyning** fikrlari tahsinga loyiq. U o‘zining **“Turkiston qayg‘usi”** kitobida shunday bitgan: “Qaysi bir millatning ona tili o‘z hojatini o‘tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag‘lubiyatga uchrab, tiz bukar ekan, unday millat ko‘p uzoqlamayoq insoniy huquqlaridan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekili shubhasizdir. Unday millatlar yolg‘izgina Vatanlaridan emas, balki butun borlig‘i bilan tarix yuzidan yo‘qolishga majbur bo‘ladilar”.

Yoki bo‘lmasa, **Abdulla Oripovning** 1965-yilda yozilgan **“Ona tilimga”** she‘riga qarang:

Ming yillarkim bulbul kalomi
O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho‘rluk to‘tining holi
O‘zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she‘rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman!

Biz farovon kunlarimizda tilimizga yanada ko‘proq hurmat bilan yondashishimiz, rivojiga munosib hissa qo‘shishimiz lozim. Tilimizni mukammal o‘rganish, bexato va ravon so‘zlashish har bir millatdoshimizning ulug‘vor burchidir.

Go‘zal FAXRIDDINOVA,
“Demokratlashtirish va inson huquqlari” jurnali bosh mutaxassisi

Jadid bobolarimiz ham ona tilining millat ravnaqida qanchalar muhim ahamiyat kasb etishini anglagan holda unga yuksak e‘tibor bilan yondashgan va rivoji uchun o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shgan. **1921-yil 1-5-yanvarda Toshkentda birinchi o‘lka o‘zbek tili va imlosi qurultoyi o‘tkazilgani ona tiliga yuksak e‘tiborning yaqqol namunasidir.** Ushbu qurultoyda jadidlar tomonidan ishlab chiqilgan **alifbo hamda imlo qoidalari tasdiqlandi.**

Bu borada taniqli jadid namoyandasi, shoir, tilshunos va folklorshunos Elbek (Mashriq Yunusov)

TEZ BOYISH ILLUZIYASI

QIMOR O‘YNAGAN HECH QACHON YUTMAYDI, UNI O‘YNATGAN YUTADI.

O‘zbekistonlik aksariyat yoshlar “bukmekerlik” yoki tavakkalchilikka asoslangan onlayn qimor o‘yinlariga mukkasidan ketib, bu ularning kundalik odatiga aylanib qolmoqda. Ular ilm olish, sport bilan shug‘ullanish haqida o‘ylamasligi mumkin, ammo qimorni kanda qilmaydi.

Qimorda bor-budini boy berib, o‘z joniga qasd qilayotgan, mol-mulki, uy-joyini ham sotishga majbur bo‘layotganlar soni ortib bormoqda. Ommaga oshkor bo‘lgan ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yilning dastlabki olti oyida 6 nafar shaxs shuning orqasidan o‘z joniga qasd qilgan.

Mamlakatimiz qonunchiligiga ko‘ra, qimorning har qanday turini o‘ynash, tashkil qilish, targ‘ib etish taqiqlangan. Shunga qaramay, yurtimizda bukmeckerlik kompaniyalari mijozlari soni ortib bormoqda. Ular asosiy mijozlarini reklama orqali topadi. Reklamalarda zamonaviy mashinasi, juda ko‘p puli bor insonlar ko‘rsatilib, tez va oson pul topish motivi auditoriya ongiga singdirib boriladi.

Bu kompaniyalar qimorni targ‘ib etuvchi, odamlarni ishonitiruvchi yollangan “kapper”lar yordamidan keng foydalanadi. Kapperlar ijtimoiy tarmoqlardagi kanallari orqali odamlar ishonchiga kirib, sport o‘yinlarini tahlil qilish, go‘yo yutuqli kuponlar ulashish, sotish, odamlar pulini shilish bilan shug‘ullanadi.

Qimor o‘yinlari algoritmi shunday: avvaliga mijozga yutuqlar osongina taqdim etiladi, keyinchalik bor-budidan, hatto hayotidan mosuvo qilish darajasigacha olib boradi. O‘yin ruhiy qaramlikni keltirib chiqaradi. Tez boyib ketishdek xomxayol hech qachon amalga oshmaydi.

O‘yin sxemasi juda oddiy: moddiy foyda bo‘lmasa, bukmeckerlik kompaniyalari sizga hech qachon o‘ynash imkonini bermaydi.



Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 191-moddasi (Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar), shuningdek, Jinoyat kodeksining 278-moddasi (Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish hamda o‘tkazish)ga binoan, bu turdagi faoliyat noqonuniy hisoblanadi. Qimor o‘ynaganlar 3 million so‘mgacha jarimaga tortiladi, kompyuter yoki telefoni, yutuqlari musodara qilinadi.


“

KAPPER – ONLAYN QIMORDA SPORT O‘YNALARIGA GANAK (STAVKA) TIKISH, YUTUQLI KUPONLARNI YARATISH BO‘YICHA TAHLILCHI.



Samandar SODIQOV,
O‘ZJOKU talabasi

“HAYAJONSIZ O'QIB BO'LMAYDI”



Loyiha muallifi: **Ziyoda RAHIMBOYEVA**

UMR EMAS, TUSH...

Romanning bosh qahramoni Rustamga otasi yozgan maktubda baxtiqaro ota o'zini dori ichirilib, karaxt holatida u yerdan bu yerga sudrab yurilgan, kim nimani buyursa, so'zsiz bajargan, eng dahshatli, uyg'onishga imkoni bo'la turib, uyg'onolmagan qo'rqqoqqa qiyoslaydi. Uning bu xulosalarini o'qib, o'yga tolamiz, bugun ham oramizda shu inson kabi **umrini boy berib, ishtiyoqi, kuchi, oltinga teng vaqtini o'tkinchi hoy-u havaslariga sovrayotgan, sog'ligidan ayrilayotgan yoshlar yo'q emas.**



RUSTAMNING O'RNIGA O'ZIMIZNI QO'YIB KO'RISH BILANOQ KO'P NE'MATLARNING QADRIGA YETMAYOTGANIMIZNI ANGLAY BOSHLAYMIZ.

O'qishni to'xtatib armiyaga, so'ng urush o'chog'i - Afg'onistonga jo'natilgan Rustamning o'rniga o'zimizni qo'yib ko'rish bilanoq ko'p ne'matlarning qadriga yetmayotganimizni anglay boshlaymiz. Ayniqsa, qahramonning sovet hukumatining bosqinchilikdan iborat siyosiy manfaati, jirkanch mafkurasi uchun jonini garovga qo'yib, navqironlik davri qo'rqinchli tushdek o'tib ketgani kitobxon-da nafrat uyg'otadi. Temur, Xayriddin kabi yoshlarning Afg'on yerlarida xo'rlanib o'lib ketishi,

afg'on xalqining urushdan tortayotgan azoblaridan ruhiy zarba olgan, dahshatli urush xotiralaridan yillar o'tib ham qu-tila olmagan Rustamning umri qanday yakun topgani qayg'uga soladi. Umrining baxtli damlarini eslolmaydigan, kunlarni nima-ga sarf etganini o'zi ham aniq ayta olmaydigan, sog'ligi yo-monlashib, ishga yaramay qol-sa ham, har kungi yumushlarini qo'ymaydigan Qurbonoy xola-ning ichki kechinmalari kitob-xonni asar ruhiga yanada yaqin-roq olib kiradi.

Qanday istasa, shunday yashash ixtiyori insonning o'z izmida emasligi ayanchli...

O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani kitobxonni mulohaza qilishga, xulosalar chiqarishga undaydigan asarlardan. Kelajak maqsadlari, katta-katta orzulari, pok sevgisi urushda nobud bo'lgan, bosqinchi mafkura qurboniga aylangan yoshlar va ular hayotida tub burilish yasagan voqealar tasvirlangan asar **“Birga o'qiyimiz”** loyihasining navbatdagi “mehmoni” sifatida tanlandi. O'zbek adabiyotining otaxon adibi Said Ahmad ta'rifi bilan aytganda *“Romanni loqayd, hayajonsiz o'qib bo'lmaydi. U kitobxonni larzaga keltiradi. Xalq boshiga kulfatdan boshqani solmagan qonli urushni boshlagan telba urush-qoqlarga dil-dilidan qarq'ish yoq'diradi”*.

ASAR MUVAFFAQIYATI

XX asr adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shgan adibning “Tushda kechgan umrlar”i yoshlar va o'smirlar ruhiyati, orzu va afsuslari, xato va yutuqlarini hayotiy ko'rsatib bera olgani bilan muvaffaqiyat qozongan. 1991-1992-yillarda yozilib, ilk bor “Sharq yulduzi” jurnalida qismlarga bo'lib e'lon qilingan asar o'sha davrdayoq talaba-yoshlar orasida qo'lma-qo'l o'qilgan.

Siz mutolaaga shoshiling, biz esa asar asosida tuzilgan savollarni e'lon qilamiz:

1. Roman qaysi fasl tasviri bilan boshlanadi va tugaydi? Sizningcha, nega muallif aynan shu faslni tanlagan?
2. Rustam asardagi qaysi qahramon haqida “qurol o'qlash emas, maktabda bolalarni o'qitish ko'proq yarashadi”, deb o'ylaydi?
3. Komissar Soat G'aniyev asarda qanday ramziy obraz vazifasini bajargan?
4. Asarda sizni ta'sirlantirgan o'rinlardan 3 tasini sanang.
5. “Men sizning molingizni tekin-ga ololmayman, siz uni yetishtirish uchun mehnat qilgansiz”, asarda-gi bu gaplar kimga tegishli?

Savollarga javoblaringizni joriy yilning **6-mart** sanasiga qadar **yoshlar-ovozi@mail.ru** pochta manziliga yo'llashingiz mumkin!

Javoblarga qo'shimcha sifatida asardan olgan taassurotlaringizni kichik taqriz ko'rinishida yozib yuborishingiz sizga g'alaba sari ustunlik berishi mumkinligini eslatib o'tamiz. Barchaga yoqimli mu-tolaa va omad tilaymiz!

YULDUZLAR MANGU YONADI

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi-da “Yulduzlar mangu yonadi” mavzusida Tog'ay Murod tavalludining 75 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy xotira kechasi bo'lib o'tdi.



Tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi mutasaddilari, adabiyotshunos olimlar, adibning tengdosh-zamondoshlari, muxlislari, kitobxonlar ishtirok etdi. Yig'ilganlar yozuvchi haqidagi xotiralari bilan bo'lishdi.



Adibning asarlari tahlil qilindi, fazilatlar, haqiqiy o'zbeklar qiyofasini yaratgan qahramonlari tilga olindi. Tog'ay Murod asarlarini o'rgangan olimlar uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasini ilmiy asosda ochib berdi. Shoirlar adibga bag'ishlangan she'rlaridan o'qidi.

“BOOK CLUB” PREZIDENTI G'OLIB BO'LDI

Loyihamizning o'tgan galgi sonida jahon bestsellerlaridan biri Uolter Tevisning **“Qirolichaning yurishi”** asari haqida suhbatlashgan va o'zini sinab ko'rish istagidagi kitobxon tengdoshlarimiz uchun savollarni taqdim etgan edik. Barcha javoblarga to'g'ri va birinchi bo'lib javob yo'llagan qatnashchini aniqladik. G'olib **Mohiniso Kamoliddinova** ayni paytda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 4-bosqich talabasi va “Book club” prezidenti.

PS. Mohinisoga tahririyatimiz nomidan eng sara asarlar beshligi va maxsus diplom topshirildi. Kitobsevar mushtariyimiz va loyihada ishtirok etish istagidagi barcha yoshlarga omad tilaymiz!



BU KO'ZLARDA SHAHD BOR!

Xolida MUSULMON

Bahor nafasi dimoqqa uriladi. Yashillikka burkanayotgan dasht sizni bahoriy marosimlarga chorlaydi. Tez orada barcha vohalar sayil, sumalak bazmi, ko'pkarining shovqin-suroniga to'ladi. Qishdan orziqib chiqqan ko'ngillar o'zini kengliklarga otadi.

Qir-adirlikda o'tadigan milliy o'yinlarimizning eng shiddatlisi, shubhasiz, ko'pkaridir. Turkiy xalqlar uloqni, asosan, to'y-bazmlar, g'alaba va hosil bayramlari, xalq sayilari munosabati bilan o'tkazgan.



Pishqirgan otlarning ko'zida olov bor, chavondozlarning yuragi yonadi, to'dadan o'z o'ljasini uzib chiqib, marraga intiladi. Mikrofondan oqsoqolning ovozi eshitiladi: "Ha, polvon, mahkam bo'!! Mahkam bo'l-e!".



Toshkent viloyatining Piskent tumanida o'tkazilgan ko'pkari ham xalqning qadimiy marosimlarga naqadar ishqiboz ekanligini ko'rsatdi. Tomoshabinlar, asosan, er yigitlar. Ular orasida akalariga ergashib kelgan bolakaylar ham uchraydi.

Davrada shiddatni, g'ayratni his qilasiz. Kimdir o'z hududi sharafini himoya qilib, "bum-baka-bum" qilsa, birov o'lja tortib ketayotgan o'smir yigitni olqishlaydi: "E qoyil, otangga ballii!".



So'zlar qulog'ingizga urilar ekan, mard yigit o'z g'ururini qanday shiddat bilan himoya qilishi kerakligini ko'rib, o'yinni miriqib tomosha qilasiz. Tomoshabinlar gavjum. O'g'li bilan kelgan otalar farzandini boshiga ko'taradi, mashina ustiga chiqarib qo'yadi. Zero, farzandlari ko'pkarini ko'rsin, qalbiga yigitlik olovi kirsin, polvonlardek g'ururli bo'lsin.

Mardlik va jasurlik ramzi bo'lgan uloqdan so'ng hamma o'ljasini aravasiga ortadi-yu, o'z uyiga - tepa to'yiga ravona bo'ladi.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:

Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir o'rinbosari:
Rustam YUSUPOV

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahhih:
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil II-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma taboq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-208, Adadi - 10366. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

